

Ekologik Vaziyatni Og'irlashuvi Aholining Daromadlarining Pasayishiga Ta'siri

Qudratov Azizjon Dehqonboyevich

BuxDU, "Yashil iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologiya, tabiat tushunchasi, ekologik vaziyatni og'irlashuvi aholining daromadlarining pasayishiga ta'siri, ekologiya buzilishining inson salomatligiga ko'rsatadigan ta'siri, bugungi kundagi statistik ko'rsatkichlar, olib borilayotgan ishlar, rejalar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ekologiya, salomatlik, tabiat, chang, zarar.

KIRISH

Mamlakatimizda atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, bu borada o'tkazilgan tahlil natijalari atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning mavjud emasligi, shuningdek, qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish uchun tabiatni muhofaza qilish organining vakolatlari yetarli emasligidan dalolat beradi.

Inson hech qachon tabiatsiz yashay olmaydi, chunki u tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Biz yashab turgan va bizni o'rab turgan olam xuddi onamiz kabi mehribon va jonkuyar. Quyoshning har zarrasida, tuproqning har jismida tabiatning bizga bo'lgan onadek mehribon taftini his qilamiz. O'zining har bir jabhasida inson uchun zarur bo'lgan minglab unsurlarni mujassam etgan. Ana shunday go'zal tabiatimiz bugungi kunga kelib qay ahvolga tushmoqda? Bunga kimlar sababchi? Buni qanday oldini olish mumkin?[1-10] Degan savollar bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylanmoqda. Ming afsuski inson tabiatga misli ko'rilmagan miqdorda tasir ko'rsatadi. Inson aql-zakovati orqali, mehnat faoliyati tufayli ta'sir qilishini hechbir narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. Aniqroq aytadigan bo'lsak mavjudotlar tabiatdanqanday bo'lsa, shunday foydalanib, unga sezilarsiz tasirini o'tkazadi. Insoniyat uni o'rab turgan barcha shart-sharoitlarga moslasha oladi, moslasha olmas, uni o'zi istaklariga moslashtiradi, natijada tabiat muvozanati buziladi, buzilgan muvozanat esa katta ta'lofatlarga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tirik mavjudotlarni o'rab turgan ekologik muxit, asosan, insoniyat tomonidan salbiy tomonga o'zgartirib yuborildi, buning asosiy sababi zavod-fabrikalar, transportlar va ulardan chiqayotgan chiqindilar [2-3].

Bu o'zgarishlar atrof-muhitni shu darajada o'zgartirdiki, barcha tirik mavjudotlar qatori inson salomatligiga ham o'z tasirini o'tkazdi.

XXI asr insoniyat faoliyatining har bir sohasida, ayniqsa, tibbiyotda buyuk kashfiyotlar qilib, milliadrab mablag'lar sarflanishiga qaramay, insonlar organizmiga kasalliklar xavf solishi va

hoyotda bevaqt ko'z yumushlar ko'p uchraydi.

Biz atrof-muhitga va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadigan atrof- muhitga ta'sirini tavsiflash bilan boshlaymiz. Bu yerda biz nafaqat o'simliklar va hayvonlarga yetkazilgan zarar haqida gapiramiz, balki bu ta'sirlar odamlarga ham ta'sir qiladi. Odatda, qabul qilinadigan qarorlar atrof muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish, tabiiy muhitni himoya qilishdan ko'ra, inson salomatligini himoya qilish uchun ko'proq ahamiyatga ega.

Ushbu ta'sirlarning asosiy oqibatlarini umuman sayyoramizning ifloslanishidir. Biz suv, tuproq, havoning ifloslanishini, ekotizimlarning yo'q qilinishini, yashash joylarining parchalanishini va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi kasalliklarning ko'payishiga, biologik xilma-xillikning yo'qolishiga va o'simlik va hayvonot dunyosida ham, odamlarda ham sog'liq muammolariga olib keladi [5].

Buyuk mutafakkir bobomiz Abu Ali ibn Sinoning hozirda ekologiya deb yuritilayotgan atrof-muhitning deyarli barcha omillari, ularga insonning, jonizotlarning ta'siri va nihoyat, bu omillarning inson va jonizotlarga aks ta'siri to'g'risidagi mashhur iboralarning krltirishning o'zi kifoya. "Chang bo'lmaganda inson 1000 yil yashagan bo'lar edi", yoki: "Havo toki muvozanatlangan va toza bo'lsa, uning begona qo'shimchalar qo'shilmasa, u salomatlik garovi bo'ladi, aks holda turli kasalliklarga sabab bo'ladi" [4-6]. Yashash joyi muhiti borasida esa "Tib qonunlari"da alohida ta'kidlab, shunday deyilgan: "Turar joy tanaga turlicha ta'sir qilishi mumkin: balan yoki past joyligi, tuproq tarkibi hamda xususiyati, suvning seroblighi yoki kamyoblighi, darxtnlarning mo'llighi, qabrison yoki konlarga yaqinligi va boshqalar yashash joyi tanlanganda muhim ahamiyatga ega". Bu fikrlar muhit to'g'risida bo'lib, tibbiy ekologiyada tegishli ekanligi guvohi bo'lamiz.

Jahon statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining 10% qarilikdan, 20% baxtsiz hodisalar va janglardan, 70% esa kasalliklardan o'lmoqda. Shuningdek, bizning sog'lig'imizning atigi 10%i tibbiyotga, qolgan 90% asa o'zimizga va atrof muhit hodisalariga bog'liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunga kelib ekologik muammolar inson salomatligiga jiddiy tahdid solmoqda. Global gumanitar forum ma'lumotiga ko'ra, sayyoramizda ro'y berayotgan iqlim o'zgarishi yiliga uch yuz ming insonning umriga zomin bo'lmoqda. Uch yuz million aholi uning salbiy ta'siri ostida hayot kechirmoqda. Bundan iqtisodiyotga ham jiddiy zarar yetmoqda. Bunday global muammolar Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Orol bo'yidagi noxush ekologik vaziyat, buning ta'sirida kelib chiqayotgan tabiiy tangliklar, cho'llanish muammosi bunga misoldir. Bundan tashqari yer yuzini ifloslanishning eng mudhish omillaridan biri bu nurlanishdir. Uni na ko'rib, na eshitib bo'ladi, na ta'mi, na hidi bor. Biroq uning ta'sirida inson organizmdagi sistemalarning o'zaro bog'liqligi buzilib, tanani aql va idrok bilan boshqaruvchi generatormiya esa so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan o'zgarishlarga duch kelmoqda. Natijada bu kichik miqdordagi nurlanishdan aholining ma'lum guruhlari va ayniqsa homilador ayollar homilasiga, o'sish va rivojlanish jarayoni kechayotgan bolalar, immuniteti susaygan qariyalar va sog'lig'i zaif insonlar aziyat chekmoqda. Nurlanish bizning organizmizga qon va suyaklarga turli yo'llar (ovqat, suv va havo) bilan kirib butun inson organizmini shikastlantirib, uni bevaqt o'limiga sabab bo'lmoqda.

Nurlanishdan tashqari sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli chiqindilar, nitratlar va qishloq xo'jaligida ko'plab ishlatiladigan har xil zaharli qotillar (pestitsid) va mineral o'g'itlardir. Bu zararli moddalar ozuqa mahsulotlari orqali odam organizmiga tushib har xil kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ma'lumki bir mintaqada kasalliklarning tarqalishi shu joyda yashovchi aholi bilan atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq. Masalan, ko'lmak suvlar to'planib qolgan joylarda bezgak chivinining yashashi uchun qulay sharoit yaratiladi va shu shu joylarda bezgak kasalligining paydo bo'lish ehtimoli yuzaga krladi. Afrika uyqu kasalligining paydo bo'lishi uchun esa o'tloqzorlar bo'lishi kerak. Opistorxoz kasalligi daryo yoqalarida yashovchi kishilarda ko'p uchraydi, chunki bu kasallikni keltirib chiqaradigan chugalchangning oraliq xo'jayini baliq bo'lib,

kasallik odamga baliq go'shti orqali yuqadi. Bundan tashqari aholi orasida ko'p uchraydigan allergik kasalliklarni ham misol qilib olishimiz mumkin [6-7].

Ko'plab epidemiologik kuzatuvlar atrof-muhitning kimyoviy ifloslanishi va aholining reproduktiv funksiyasining buzilishi o'rtasidagi bevosita sabab-oqibat bog'liqligini ko'rsatadi. Bu mehnat sharoitida ham - metallurgiya zavodlari ishchilarida, to'qimachilik sanoati, gaz va neftni qayta ishlash korxonalarida, laborantlar va jarroh ayollarda ham, atmosferasi, suv manbalari va tuprog'i bilan ifloslangan aholi punktlarida ham aniqlandi. kimyoviy birikmalar. Birinchi va ikkinchi holatda reproduktiv funktsiyaning buzilishi homiladorlikni to'xtatish, o'z- o'zidan tushish, homiladorlik va tug'ish paytida asoratlar, tug'ma deformatsiyalar xavfining ortishi bilan namoyon bo'ldi.

Hozirgi kunda yurtimizda sanitariya-epidemiologiya muhitini barqarorlashtirish, tabiatga salbiy ta'sirlarni kamaytirish, ekologiya va gigiyena tadbirlarini uzviy ravishda tashkil etish tizimi shakllangani inson salomatligini asrash va yuqumli kasalliklar bo'yicha barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yangi ekologik sharoitlarning mavjudligi inson organizmida millonlab moslanish jaroyonlarni keltirib chiqarmoqda, demak inson organizmi har qanday tabiiy sharoitda o'zini tiklash sog'aytirishi va moslashish qobilyatiga ega. Bizning vazifamiz esa o'zini o'zi sozlovchi va tiklovchi biosistemaga turli kasalliklardan o'zini himoya qilish uchun shar-sharoit yaratib berishdir. Aholi salomatligini mustahkamlash va kasalliklarning oldini olishda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, ba'zi ekologik vaziyat o'ta tang ahvolda bo'lgan hududlarda tibbiy nazoratni yanada kuchaytirishimiz zarur.

Hozirgi vaqtda turli zavod va fabrikalarda 45 ming turga yaqin kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda va aholiga sotilmoqda, jahonbo'yicha 300 mln. tonnaga yaqin organik moddalar ishlab chiqarilib, ular yordamida milliondan ortiq buyumlar tayyorlanmoqda. Lekin ishlab chiqarishda foydalanilayotgan ushbu kimyoviy moddalar ma'lum miqdorda havo, suv va oziq-ovqatlar orqali inson tanasiga ham kelib tushmoqdaki, buning natijasida turli xil yuqumli kasalliklar yuzaga kelmoqda. Chunki ayrim kimyoviy moddalar zaharlilik xususiyatiga ega bo'lsa, ayrimlari allergenlik, konserogenlik (rak kasalligini keltirib chiqarish xususiyati), mutagenlik (naslga ta'sir etish xususiyati) va teratogenlik (chala yoki mayib-majruh tug'ilishni yuzaga keltirish xususiyati), fibrogenlik (tanadagi to'qimalar birikmasining ajralishi) xususiyatlariga egadir. Bunday kimyoviy moddalarga, ayniqsa, og'ir metallar (qo'rg'oshin, kadmiy, simob), noorganik gazlar (oltinugurt ikki oksidi, is gazi, azot oksidi, ozon), kremniy ikki oksidi (DDT, xlorli vinil va boshqalar) misol bo'lishi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalar alohida holda ham, aralashma holda ham inson sog'lig'i uchun juda xavfli hisoblanadi. Keyingi yillarda saraton kasalligining ko'payishi, turli xil kasalliklarning yangi turlarini vujudga kelishi, asosan, kimyoning ta'siridandir.

Texnikaviy taraqqiyot davrida atmosfera havosining ifloslanishi Respublikamizning Olmaliq, Chirchiq, Farg'ona va Navoiy viloyatlarida, ayniqsa sezilarli darajada ortganligi hech kimga sir emas. Birgina Navoiy viloyati misolida oladigan bo'lsak, atmosfera havosining yuqori darajada ifloslanganligini kuzatish mumkin. Ikki yuz mingga yaqin aholisi bo'lgan Navoiy shahrida havoni ifloslantiruvchi ko'plab sanoat korxonalarini mavjud. Ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarida har yili 637,6 ming tonnazararli moddalar hosil bo'lib, shundan 97,2% i ushlab qolinadi. Navoiy issiqlik elektr stansiyasi korxonalarida gaz yoqishda hosil bo'ladigan azot oksidlarini tozalash inshootlarini loyilash ko'zda tutilgan, ammo ushbu moddalarning me'yoridan yuqoriligi saqlanib qolmoqda. Viloyatda ekologik muvozanatni birlashtirish maqsadida "Navoiy viloyatining 2016-2022 yillarga mo'ljallangan atrof- muhitni muhofaza qilish" dasturi ishlab chiqilgan. Sanoat korxonalarini bilan birga shaharda avtotransport vositalarining ko'payishi ham shahar havosiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalarini chiqindilarini kamaytirish uchun avvalambor hozirgi zamon talabiga mos keladigan ilg'or texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqindisiz texnologiyadan foydalanishni keng yo'lga qo'yishimiz lozim. Zero, chiqindilar masalasi ekologiyadagi muhim muammolardan biri bo'lib, ularni qayta ishlash yoki gigiyenik talablar

bo'yicha ishlov berilsa nafaqat iqtisodiy jihatdan foyda ko'ramiz, balki yerni, havoni, suvni, oziq – ovqat mahsulotlarining ifloslanishi oldi olinardi, kishilar sog'lig'ini muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega bo'ladi va kelajak avlod uchun ham tabiatimizni o'z musaffoligini saqlagan holda yetkazib bergan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kudratov, A. D. (2020). Nature and attraction of foreign investments causes. In International scientific review of the problems of economics, finance and management (pp. 67-73).
2. Qudratov, A. (2020). The state and prospects of development of the livestock sector in Uzbekistan. Центр научных публикаций (buxdu.uz), 1(1).
3. Dehqonboyevich, K. A., & Khamza-kizi, S. S. (2021, March). The State And Prospects Of Development Of The Livestock Sector In Uzbekistan. In E-Conference Globe (pp. 293-296).
4. Кенжабоев, А. Э., & Кенжабоев, Ж. А. (2017). Умумтаълим мактаблари ўқитувчиларида касбий компетентликни шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари. *Современное образование (Узбекистан)*, (11), 22-26.
5. Кенжабоев, Ж. А., & Кучкинов, Х. Х. (2017). САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ РАБОТА УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. *Вопросы педагогики*, (9), 33-35.
6. Kenjabayev, J. A. Linguistic features of the development of oral speech competence of students of the direction of physical culture education (on the example of sports terminology). *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.-UK*, 11, 48-51.
7. Соляхова, Л. Р. (2021). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ПРИ РАЗВИТИИ ПОТЕНЦИАЛА ОБУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА У КУРСАНТОВ АКАДЕМИИ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1166-1171.
8. Кенжабаев, Ж. (2022). The implementation of literature in teaching speaking for advanced students. *Общество и инновации*, 3(2/S), 262-265.
9. Кенжабаев, Ж. (2023). СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП РАЗВИТИЯ НАУКИ О ЯЗЫКЕ. *Экономика и социум*, 2 (105), 704-707.
10. Кенжабоев, А., & Кенжабоев, Ж. (2015). Тарбия технологияси ва унинг долзарблиги. *Современное образование (Узбекистан)*, (4), 61-64.
11. Кенжабоев, А. Э., & Кенжабоев, Ж. А. (2016). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР. *Ученый XXI века*, (3-2 (16)), 44-49.
12. Кенжабоев, Ж. А. (2017). Психолого-педагогические аспекты формирования диалога как компонента иноязычного обучения. *Вестник современной науки*, (3-2), 48-50.
13. Nigora, S. (2021). On The Manuscript Copies Of “Al Kashshof” By Makhmud Zamakhshari. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*, 12(7), 2032-2042.
14. Sulaymonova, N. A. (2020). The Work “Al-Mufassal Fi San’ati-L-I’rob” By Mahmud Zamakhshari And Its Lithography Copies. *The American Journal of Applied sciences*, 2(09), 17-24.
15. Sulaymonova, N., & Sulaymonova, K. (2015). A GREAT SCIENTIST OF KHOREZM. *International Journal*, (1).
16. Сулаймонова, Н., & Сулаймонова, К. (2015). Фразеологизмы в произведении Махмуда Замахшари «асо-л-балого». *Восточный факел*, 1(1), 21-24.

17. Sulaymanova, N. (2019). CONFIDENTIAL REVIEW AT LITERARY HERITAGE OF MAHMUD ZAMAKHSHARIY. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (6), 162-166.
18. SULAYMONOVA, N., & SULAYMANOVA, K. ZAMAKHSHARIY“ S SCIENTIFIC ACTIVITY. *MATER I ALLARI*, 491.
19. Toxirovna, K. F. (2021). LIFELONG LEARNING–LLL–THE BASIS OF PERSONAL DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(8), 119-123.
20. Tohirovna, K. F. (2021, February). Bologna Treaty and ECTS (EUROPEAN CREDIT TRANSFER SYSTEM). In *Archive of Conferences* (Vol. 14, No. 1, pp. 25-31).
21. Хусаинова, Ф. Т. (2020). ТАШКЕНТ В ПРОШЛОМ–В ЦЕННОМ ПИСЬМЕННОМ НАСЛЕДИИ «ТАРИХИ ЖАДИДАЙИ ТОШКАНД». *Review of law sciences*, (1), 183-187.
22. Khusainova, F. (2020). Ancestral heritage is a priceless treasure. Human and its spiritual problems in Avesto. *Oriental Art and Culture*, (I (2)), 135-137.
23. Yashnarovna, A. A. M. (2021, November). Intelligent Management Model Of Business Processes Of Production With The Use Of Fuzzy Logic Apparatus. In *2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 1-3). IEEE.
24. Abdul-Azalova, M. Y., & Mamatova, N. M. (2021). Big data technologies in technological and business processes automatization. *Big Data and Advanced Analytics*, (7-1), 50-58.
25. Muhamediyeva, D., & Abdul-Azalova, M. (2022). Application of the theory of fuzzy logic for analysis of management systems of business processes of an enterprise. *Scientific Collection «InterConf+»*, (22 (113)), 467-471.
26. Mengliyev, B. (2022). PEDAGOGICAL COMPETENCE OF A MODERN PHYSICAL EDUCATION TEACHER. *Science and innovation*, 1(B7), 554-556.
27. Sagdullayevna, K. V. (2022). YOSH GIMNASTIKACHILARNING MAXSUS TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI FAOLIYATINING MAZMUNI VA USLUBIYATI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 110-113.
28. Менглиев, Б. Н., & Умиров, Ш. Б. (2020). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВНЕДРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 119-121).
29. Ixtiyorovich, N. N., & Abdurashidovich, U. A. (2022). Study the Location of the Useful Component from the Tailings of the Gold Recovery Plant. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 2(1), 5-8.
30. Khayitov, O. G. O., Ziyodov, N. R., Fatkhiddinov, A. O. T. O., & Umirzoqov, A. A. (2021). THE INTENSITY OF THE EFFECT OF THE EXPLOSION OF BOREHOLE CHARGES OF EXPLOSIVES IN MULTI-STRENGTH ROCKS OF DEEP QUARRIES. *Scientific progress*, 2(1), 625-630.
31. Бабаев, З. Н., Умирзоков, А. А., & Петросов, Ю. Э. (2020). Техничко-экономическое обоснование кондиций для подсчета запасов горючих сланцев месторождения сангрунтау. *Студенческий вестник*, (10-2), 18-20.
32. Хайитов, О., Джураев, С., Умирзоков, А., Бекманов, Н., & Искандаров, Ж. (2021). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ РЕЗУЛЬТАТОВ ВСКРЫТИЯ, ИСПЫТАНИЯ И ОСВОЕНИЯ ПОИСКОВО-РАЗВЕДОЧНЫХ СКВАЖИН. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.

33. Nasirov, U., Umirzoqov, A., & Fathiddinov, A. (2021). ANALYSIS OF THE MODERN DEVELOPMENT OF MINING AND PROCESSING COMPLEXES IN UZBEKISTAN. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*.
34. Ochilov, S. H. (2017). A., Umirzoqov AA, Determining the optimal distance between parallel-converged borehole charges when blasting high ledges. *Bulletin TSTU–Tashkent*, 3, 167-174.
35. Usmanovich, S. A., Ikhtiyorovich, N. N., & Abdurashidovich, U. A. (2022). Processing of Layout Tails of Gold-Extracting Plants. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(1), 7-13.
36. Петросов, Ю., Хайитов, О., Умирзоков, А., Исаманов, У., & Имамбердиев, Ё. (2021). ПРОБЛЕМЫ ДОБЫЧИ И ПЕРЕРАБОТКИ ПОЛЕЗНЫХ ИСКОПАЕМЫХ В УСЛОВИЯХ ГЛУБОКИХ КАРЬЕРОВ. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
37. Samadov, A. U., Nosirov, N. I., & Umirzoqov, A. A. (2022). Overview of the concepts of gold recovery from stale tailings of a gold recovery plant. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 3-8.
38. Umirzoqov, A. (2020). The Tasks of Optimal Design and Research of Systems for Cleaning Gas Emissions of Industrial Enterprises. *International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) ISSN*.
39. G'ofurovich, K. O., & Abdurashidovich, U. A. (2021). Justification of rational parameters of transshipment points from automobile conveyor to railway transport. *World Economics and Finance Bulletin*, 1(1), 20-25.